

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/08.05.2025.I.06.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ISROILOV XUSANBOY IBROHIMJON O‘G‘LI

**SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY -
IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economical
sciences**

Isroilov Xusanboy Ibrohimjon o‘g‘li

Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini
oshirishning tashkiliy - iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....3

Isroilov Xusanboy Ibrohimjon o‘g‘li

Совершенствование организационно-экономических механизмов повышения
эффективности использования экономических ресурсов на промышленных
предприятиях

Isroilov Khusanboy Ibrohimjon ugli

Improving organizational and economic mechanisms for enhancing the efficiency of
economic resource utilization in industrial enterprises.....

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Spisok opublikovannykh rabot

List of published works.....

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/08.05.2025.I.06.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ISROILOV XUSANBOY IBROHIMJON O‘G‘LI

**SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIIY -
IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Iqt5650 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fstu.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Elnora Abdukarimovna Muminova
Iqtisodiyot fanlari doktori(DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Kambarov Jamolidin Xikmatillaevich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Muxtarov Maxmudjon Marifovich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.19.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “____” _____ kuni soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 150107, Farg‘ona shahri, Farg‘ona ko‘chasi, 86-uy. Tel.: 8(373) 241-12-06, faks: 8(373) 241-12-06, e-mail: fstu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 150107, Farg‘ona shahri, Farg‘ona ko‘chasi, 86-uy. Tel.: 8(373) 241-12-06, faks: 8(373) 241-12-06, e-mail: fstui_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2026 yil “____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

I.J.Jaxongirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent.

O.T.Nurmatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari falsafa bo‘yicha doktori (PhD), dotsent.

I.N.Ismanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida zamonaviy sanoat tarmoqlarida texnik texnologik rivojlanish darajasi sezilarli darajada oshib, ishlab chiqarishning chuqur ixtisoslashuvi jarayonlari jadallashmoqda. Buning natijasida sanoat ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilmasida ko‘plab ishlab chiqarish bo‘g‘inlari shakllanib, ularning faoliyati o‘zaro integrallashib bormoqda. Mazkur holat esa mavjud iqtisodiy resurslardan yanada samarali va oqilona foydalanishni taqozo etadi. UNIDO tashkilotining hisobotiga ko‘ra, “2025-yil sanoat iqtisodiyoti global ishlab chiqarish qo‘shilgan qiymatning 87,7% ni tashkil qiladi”¹. Mordor intelligence – Global industry prognozlariga ko‘ra, “jahon to‘qimachili sanoati 2025-yilda qariyb 760 milliard AQSh dollariga teng bo‘lsa, 2030 – yilga kelib uning hajmi 974 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda”². Shu bois, resurslardan samarali va oqilona foydalanish korxonalarning raqobatbardoshligini oshiruvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu jarayon ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, energiya va xomashyo tejamkorligini ta‘minlash orqali iqtisodiy barqaror rivojlanishga zamin yaratadi.

Jahonda sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Xususan, korxonalarda mavjud mehnat resurslari, moliyaviy manbalar, xomashyo hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanish darajasi sanoatning texnik va texnologik jihatdan qurollanganligi, shuningdek mehnat unumdorligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bilan birga, xo‘jalik yuritish samaradorligini ta‘minlash va raqobatbardoshlikni oshirishda ichki omillar - ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, raqamlashtirish hamda ilg‘or boshqaruv tizimlarini joriy etish bilan bir qatorda, tashqi omillar - xalqaro bozor kon‘yunkturasi va eksport imkoniyatlari ham muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi va ularning ishlab chiqarish faoliyatini intensivlashtirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi ko‘ra mamlakatda “sanoatning “drayver” tarmoqlarini rivojlantirish va hududiy sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish orqali umumiy sanoatdagi qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish hamda 2,5 millionga yaqin yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish kabi strategik vazifalar belgilangan”³. Bu borada ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil qilish, iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish omillari va ichki imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek, resurslardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish faoliyati yo‘nalishlaridagi tadqiqotlarga ustuvor e‘tibor qaratishni taqozo etmoqda.

¹ https://stat.unido.org/portal/storage/file/publications/qiip/World_Manufacturing_Production_2025_Q1.pdf

² <https://zipdo.co/global-textile-industry-statistics/>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 12-oktyabrdagi PF-169-son “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2024-yil 1-maydagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-71-son, 2025-yi 16-yanvardagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6-son Farmonlarida hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Iqtisodiy samardorlik, industrial iqtisodiyot, resurlarga asologan nazariya, iqtisodiy hamda mehnat resurslarining shakllanishi bilan bog‘liq fundamental masalalar xorijlik olimlardan V.S.Jevons, R.D.Erenberg, P.Senj, J.Barney, L.Bassi, D.McMurrer, P.Dennis, E.Gelmez, M.Zerenler, B.Hivarkar, A.B.Dadas va boshqalar tomonidan chuqur tadqiq qilingan⁴. MDH mamlakatlari olimlaridan L.M.Goxberg, I.G.Tsiganov, N.Azanova, V.V.Ivanov, D.A.Ananichev, V.P.Volkov, A.I.Ilin, V.I.Stankevich, S.Tolkachev, Y.V.Popov, V.N.Yusim, I.V.Denisov, A.V.Fomin, B.N.Avdonin, A.M.Batkovskiy, Y.G.Odegov, A.V.Trachuk, O.S.Suxarev, A.V.Silakov⁵ mamlakatimiz olimlaridan

⁴ Senge, P. The fifth discipline: The art & practice of the learning organization / П. Сенге // Currency. – 2020. Barney, J. B. Firm resources and sustained competitive advantage / J. B. Barney // Journal of Management. – 1991. – Vol. 17, № 1. – P. 99–120. Bassi, L., McMurrer, D. Human Capital: The New Yengine of Yeconomic Growth / L. Bassi, D. McMurrer. – McGraw-Hill, 2023. Dennis, P. Lean production simplified: A plain language guide to the world’s most powerful production system / P. Dennis. – New York: Productivity Press, 2002. Gelmez, Ye., Zerenler, M. The yeffect of agile manufacturing on logistics performance: the case of textile sector / Ye. Gelmez, M. Zerenler // İşletme Araştırmaları Dergisi. – 2020. – Vol. 12, № 4. – P. 4142–4150. Hivarkar, B., Dadas, A. B. The impact of training on workers’ productivity in textile industry – a case study of “Victory Fashions” / B. Hivarkar, A. B. Dadas // Neville Wadia Institute of Management Studies & Research. – 2016. – Vol. 2, № 1. – P. 122–127-b.

⁵ Цыганов, И. Г. Производственный потенциал промышленного предприятия: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / И. Г. Цыганов. – Оренбург, 2000. – 181 с. Азанова, Н. Н. Экономическая сущность и классификация экономических ресурсов промышленного предприятия / Н. Н. Азанова // Научный обозреватель. – 2013. – № 1. – С. 34-39. Ананичев, Д. А. Совершенствование управления технологическими ресурсами на предприятиях легкой промышленности: дис. ... д-ра экон. наук / Д. А. Ананичев. – СПб.: Университет технологии и дизайна, 2017. Волков, В. П., Ильин, А. И., Станкевич, В. И. Экономика предприятия / В. П. Волков, А. И. Ильин, В. И. Станкевич. – М.: Новое знание, 2003. – 677 с. Попов, Е. В. Классификация миниэкономических теорий / Е. В. Попов // Труды Всероссийского симпозиума по мини-экономике. Пленарные доклады. – Екатеринбург: Ин-т экономики УрО РАН, 2002. – С. 75. Экономика знаний в терминах статистики: наука, технологии, инновации, образование, информационное общество: словарь / под ред. Л. М. Гохберга. – М.: Экономика, 2012. – 240 с. Экономико-технологическое развитие фирм: учебник / В. Н. Юсим, И. В. Денисов. – М.: РЭУ им. Г. В. Плеханова, 2012. – 148 с. Фомина, А. В., Авдонин, Б. Н., Батьковский, А. М., Батьковский, М. А. Управление развитием высокотехнологичных предприятий наукоемких отраслей промышленности / А. В. Фомина и др. – М.: Креативная экономика, 2014. – 400 с. Одегов, Ю. Г., Абдурахманов, К. Х., Котова, Л. Р. Оценка эффективности работы с персоналом: методологический подход: учебно-практическое пособие / Ю. Г. Одегов, К. Х. Абдурахманов, Л. Р. Котова. – М.: Альфа-Пресс, 2011. – 752 с. Трачук, А. В. Инновации как условие долгосрочной устойчивости российской промышленности / А. В. Трачук // Эффективное антикризисное управление. – 2012. – № 6. – С. 66-71. Толкачев, С. Промышленная политика и «мейнстрим»: причины несовместимости / С. Толкачев // Экономист. – 2014. – № 4. – С. 70-80. Сухарев, О. С. Экономика

Sh.D.Doniyorova, N.Jo'rayev, M.A.Mahkamova, E.X.Maxmudov, A.Ortiqov, A.M.Qodirov, D.Tojiboeva, B.X.Umurzakov, M.Y.Isoqov, Sh.M.Yuldasheva va boshqalar⁶ ilmiy tadqiqotlarida sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslarining shakllanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, mehnat unumdorligi o'sishini ta'minlash hamda resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari masalalarini atroflicha yoritib berganlar.

Hozirga qadar olib borilgan ilmiy izlanishlarda mukammal raqobat sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar to'liq va tizimli ravishda tadqiq etilmagan. Ayni paytda, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, moddiy resurslarni tejash va inson kapitalidan samarali foydalanish orqali sanoat sohasida resurslardan foydalanish samaradorligini ta'minlash masalalari ayrim tadqiqotlarda qisman yoritilgan, xolos. Shu bilan birga, amaliyotda ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar yetarli darajada emasligi, xususan, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlovchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning to'laqonli shakllanmaganligi mavjud muammoning dolzarbligini ko'rsatadi. Bu esa ushbu yo'nalishda chuqur ilmiy-uslubiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ITD-3 raqamli "Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishni tadqiq etish, boshqarishning samarador uslub va texnologiyalarini yaratish hamda takomillashtirish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sanoati korxonalari faoliyatida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtisodiy resurslarni tahlil etish hamda ulardan foydalanish samaradorligi taskiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yoritish;

sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslar samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni tasniflash;

технологического развития / О. С. Сухарев. – М.: Финансы и статистика, 2008. – 481 с. Силаков, А. В., Силакова, В. В. Управление технологическими рисками в промышленных проектах / А. В. Силаков, В. В. Силакова // Проблемы теории и практики управления. – 2014. – № 5. – С. 106-112.

⁶ Абдукаримов, Б. А. ва бошқалар. Корхона иқтисодиёти: Дарслик. 2-нашр. – Тошкент: "Фан ва технология" нашриёти, 2013. – 368 б. Ортиқов, А. Саноат иқтисодиёти: Дарслик. – Тошкент: ТДИУ, 2004. Умурзаков, Б. Х. ва бошқалар. Меҳнат ресурслари шаклланиши ва тақсимланишининг ҳудудий хусусиятлари: Монография / Б. Х. Умурзаков ва бошқалар. – Тошкент: "Лессон Пресс" нашриёти, 2019. Дониёрова, Ш. Д. Саноат тармоғи иқтисодий самарадорлигини ошириш методологиясини такомиллаштириш: Иқтисодиёт фанлари доктори (ДСс) диссертацияси автореферати / Ш. Д. Дониёрова. – Тошкент, 2024. Жоъраев, Н., Бобожонов, О., Абдувахидов, Ф., Сотиволдиева, Д. Молиявий ва бошқарув ҳисоби: Дарслик / Н. Жоъраев, О. Бобожонов, Ф. Абдувахидов, Д. Сотиволдиева. – Тошкент: ТДИУ, 2007. – 382 б. Гаибназарова, З., Исамухаметов, С. Иқтисодиёт назарияси / З. Гаибназарова, С. Исамухаметов. – Тошкент, 2020. Махкамova, М. А. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятельностью на предприятиях машиностроения Республики Узбекистан: дисс. ... д-ра экон. наук / М. А. Махкамova. – Ташкент: ТГТУ, 1999.

xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini o'rganish va ularning qo'llanish imkoniyatlarini tahlil qilish;

Farg'ona viloyati to'qimachilik sanoati korxonalarini iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish asosida rivojlanish va raqobatbardoshlik strategiyasini ishlab chiqish;

O'zbekiston to'qimachilik sanoati korxonalarining bugungi holatini tahlil qilish va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

to'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi tahlili orqali baholash;

to'qimachilik sanoati ayrim korxonalarining resurs samaradorlik ko'rsatkichlar oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar orqali ekspert baholash tahlilini o'tkazish;

to'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

to'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish orqali sohani rivojlantirishda ko'p omilli modellar yordamida prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va rivojlanish istiqbollarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan to'qimachilik sanoati korxonalarining ishlab chiqarish jarayonida jalb etilayotgan moddiy, mehnat, kapital hamda boshqa iqtisodiy resurslardan foydalanish holati va ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning tarkibiy tuzilmasini belgilovchi asosiy dastak va vositalar tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini to'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, ekspert baholash, sintez, taqqoslash, statistik tahlil, SWOT tahlili, anketa so'rovlari o'tkazish va tahlil etish va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

to'qimachilik korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiya "xom-ashyoni diversifikatsiyalash", "texnologik jarayonlarni modernizatsiyalash", "sertifikatlash tizimini joriy etish" va "raqamli savdoni rivojlantirish" yo'nalishlarini kiritish asosida asoslangan;

to'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini "kritik" - ($1 \leq I_s < 2$), "minimal" - ($2 \leq I_s < 3$), "normal" - ($3 \leq I_s < 4$) va "optimal" - ($4 \leq I_s < 5$) darajalarga guruhlash orqali baholash taklif etilgan;

to'qimachilik sanoati korxonalarida "maqsadni aniqlash", "vazifalarni belgilash", "jarayonlarni rivojlantirish", "vositalarni rivojlantirish" va "natijalarni baholash"dan iborat besh bosqichli integratsiyalashgan omillar asosida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi taklif etilgan;

Farg'ona viloyati to'qimachilik sanoati korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish ekonometrik modellar asosida baholangan hamda uni 2028-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

to'qimachilik korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyani takomillashtirilishi mazkur sohada xom-ashyo importiga qaramlikni kamaytirish, resurslar sarfini qisqartirish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini kengaytirgan, shuningdek, eksport salohiyatini oshirish hamda raqamli savdoni rivojlantirishga xizmat qilgan;

to'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini kritik darajadan optimal darajagacha guruhlash asosida baholash resurslarni yetishmovchiligi yoki omborda ortiqcha to'planishidan keladigan risklarni erta aniqlash, xarajatlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish bo'yicha qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarini ob'ektivligini ta'minlashga xizmat qilgan, shuningdek, raqobatbardoshlik, moliyaviy barqarorlik va strategik rivojlanish bo'yicha ustivor maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash imkoniyatini kengaytirgan;

iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning besh bosqichli integratsiyalashgan omillar asosidagi takomillashgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmidan foydalanish to'qimachilik sanoati korxonalarida resurslar tejamkorligini oshirishga, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini yaxshilanishiga, eksport salohiyati, iqtisodiy va moliyaviy barqaror rivojlanish hamda rentabellik darajasini ko'tarilishiga, shuningdek, innovatsiyalar va kadrlar salohiyatidan unumli foydalanish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qilgan;

Farg'ona viloyati to'qimachilik sanoati korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishni ekonometrik modellar asosida baholash hamda mazkur samaradorlikni 2025-2028-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish mazkur sohada ishlab chiqarish resurlariga bo'lgan talab va ehtiyojni aniq belgilash, bular bo'yicha xarajatlarni optimallashtirish, jarayonlarni modernizatsiyalash, investitsiya yo'naltirish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishi davomida foydalanilgan ma'lumotlar ilg'or iqtisodchi olimlarni ilmiy-nazariy asarlariga, mamlakatimizdagi amaldagi qonunchiligiga, me'yoriy-huquqiy hujjatlar normalariga, O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari va axborotlariga, "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi va uni tarkibidagi korxonalardan olingan amaliy tahliliy ma'lumotlarga asoslanganligi hamda olingan natijalarni O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati uyushmasi tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari o'zining amaliy va ilmiy ahamiyati bilan bir necha yo'nalishlarda qo'llanish imkoniyatiga ega. To'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanishni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi takomillashtirishda ushbu izlanish muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ishlab chiqilgan yondashuvlar kelgusida sohaga oid ilmiy tadqiqotlarni olib borishda, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni yanada rivojlantirishda hamda

to'qimachilik korxonalarining barqaror faoliyatini ta'minlashga qaratilgan strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqishda amaliy qo'llanilishi mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari soha rivojiga ilmiy-nazariy va amaliy hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni tashkil etish, innovatsion taraqqiyotga erishish, mehnat unumdorligini oshirish hamda sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda mazkur ilmiy izlanishlar natijalari muhim metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini shakllantirishda, shuningdek, "Iqtisodiyot nazariyasi", "Sanoat iqtisodiyoti" va "Korxona iqtisodiyoti" kabi fanlarning o'quv dasturlarini takomillashtirish hamda darslik, o'quv qo'llanmalari va uslubiy materiallar yaratishda mazkur tadqiqotning ilmiy xulosalari va amaliy tavsiyalari asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

to'qimachilik korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyani "xom-ashyoni diversifikatsiyalash", "texnologik jarayonlarni modernizatsiyalash", "sertifikatlash tizimini joriy etish" va "raqamli savdoni rivojlantirish" yo'nalishlari asosida takomillashtirish bo'yicha bergan taklifi Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan to'qimachilik korxonalarini rivojlantirish bo'yicha Yo'l xaritalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi 2025-yil 08-oktyabrdagi 02/25-2353-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni joriy etilishi natijasida mazkur sohada xom-ashyo importiga qaramlikni kamaytirish, resurslar sarfini qisqartirish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini kengaytirgan, shuningdek, eksport salohiyatini oshirish hamda raqamli savdoni rivojlantirishga xizmat qilgan;

to'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini "kritik" - ($1 \leq I_s < 2$), "minimal" - ($2 \leq I_s < 3$), "normal" - ($3 \leq I_s < 4$) va "optimal" - ($4 \leq I_s < 5$) darajalarga guruhlash orqali baholash metodi bo'yicha bergan taklifi «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi tarkibidagi korxonalar faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi 2025-yil 08-oktyabrdagi 02/25-2353-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxonada resurslarni yetishmovchiligi yoki omborda ortiqcha to'planishidan keladigan risklarni erta aniqlash, xarajatlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish bo'yicha qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarini ob'ektivligini ta'minlashga xizmat qilgan, shuningdek, raqobatbardoshlik, moliyaviy barqarorlik va strategik rivojlanish bo'yicha ustivor maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash imkoniyatini kengaytirgan;

to'qimachilik sanoati korxonalarida "maqsadni aniqlash", "vazifalarni belgilash", "jarayonlarni rivojlantirish", "vositalarni tanlash" va "natijalarni baholash"dan iborat besh bosqichli integratsiyalashgan omillar asosida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning takomillashtirilgan tashkiliy-

iqtisodiy mexanizmi «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasi tarkibidagi korxonalar faoliyatiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasi 2025-yil 08-oktyabrda 02/25-2353-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni joriy etilishi natijasida to‘qimachilik sanoati korxonalarida resurslar tejamkorligini oshirishga, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini yaxshilanishiga, eksport salohiyati, iqtisodiy va moliyaviy barqaror rivojlanish hamda rentabellik darajasini ko‘tarilishiga, shuningdek, innovatsiyalar va kadrlar salohiyatidan unumli foydalanish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qilgan;

Farg‘ona viloyati to‘qimachilik sanoati korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishni ekonometrik modellar asosida baholash hamda mazkur samaradorlikni 2025-2028-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlaridan «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasi tomonidan prognoz ko‘rsatkichlarni shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasi 2025-yil 08-oktyabrda 02/25-2353-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni joriy etilishi natijasida mazkur sohada ishlab chiqarish resurlariga bo‘lgan talab va ehtiyojni aniq belgilash, bular bo‘yicha xarajatlarni optimallashtirish, jarayonlarni modernizatsiyalash, investitsiya yo‘naltirish bo‘yicha samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta Respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obykti va predmeti shakllantirilgan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida sanoat korxonalari iqtisodiy resurslarning rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari, sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari, hamda

sanoat tarmoqlari va korxonalarda iqtisodiy resurslardan foydalanishining xorij tajribasi va mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishni ta'minlash uchun ustuvor yo'nalishlarni kompleks amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, avvalo, resurslardan foydalanish samaradorligini baholashga oid uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish, ularga ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash va ushbu omillarni korxonalar miqyosida chuqur tahlil qilish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantiruvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni ishlab chiqish, korxonalarda mazkur mexanizmni bosqichma-bosqich joriy etish algoritmini ishlab chiqish ham dolzarb hisoblanadi.

“Iqtisodiy resurslar – bu jamiyat (tarmoq, korxona) maqsadlariga erishish uchun ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish) jarayonida potensial foydalaniladigan cheklangan tavsifga ega tabiiy, moddiy, nomoddiy va inson resurslari majmuyi hamda iqtisodiy faoliyatning zarur tarkibiy elementlari va shart-sharoitlaridir”⁷. Yuqoridagi ta'rif umumiy hisoblanib sanoat korxonalarining iqtisodiy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq ochib bermaydi. Bizning fikrimizchacha, “Iqtisodiy resurslar - sanoat korxonalarining maqsadlariga erishish uchun ishlab chiqarish (yoki xizmat ko'rsatish, ish bajarish) jarayonida foydalanilishi mumkin bo'lgan, cheklangan tabiiy, mehnat, moddiy, axborot, moliyaviy, ma'muriy, texnologik va intellektual resurslar majmui tushuniladi. Shuningdek, ular iqtisodiy faoliyatning muhim tarkibiy qismlari va zaruriy shart-sharoitlar sifatida qaraladi.”⁸

Ishlab chiqarish korxonalarining resurslari ularning funksional vazifasiga qarab ikki toifaga bo'linadi: ishlab chiqarish resurslari va hosilaviy resurslar. Ishlab chiqarish resurslari – bu mahsulot yaratish jarayonida bevosita ishtirok etadigan mehnat, moddiy, texnologik va tabiiy resurslardir. Hosilaviy resurslar esa moliyaviy, axborot, intellektual va ma'muriy resurslardan iborat (1-rasm).



1-rasm. Sanoat korxonalari uchun iqtisodiy resurslar tasniflagichi.⁹

Resurslar bilan ta'minlash iqtisodiy subektlarning barcha faoliyat sohalariga taalluqlidir va boshqarish obyekti hisoblanadi. Ammo zamonaviy bosqichda


⁷ Doniyorova, Sh. D. Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati / Sh. D. Doniyorova. – Toshkent, 2024. – 12-b.

⁸ Муаллиф ишланмаси

⁹ Габрусь, А. А. Экономическая сущность и классификация экономических ресурсов промышленного предприятия / А. А. Габрусь // Дневник науки. – 2019. – № 7. – 12-б.

boshqaruv amaliyoti resurslarni ta'minlash metodologiyasidan oldinda bormoqda. Yangi resurslarning paydo bo'lishi, ularni shakllantirish manbalari va baholash usullarini ishlab chiqish zarurati tug'ilgan.

Korxona rivojlanishini strategik boshqarishning metodologik yondashuvlari, resurslardan oqilona foydalanish konsepsiyasiga asoslangan holda, ularning mohiyatini ochib beradi va innovatsion rivojlanish yo'nalishlari, iqtisodiy barqarorlik va barqarorlik tamoyillari, o'zaro ta'sirning hududiy shakllari bilan uyg'unlikni ta'minlaydi (2-rasm).



2-rasm. Resurslardan oqilona foydalanishning uslubiy yondashuvi¹⁰

Rasmda ko'rsatilgan resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan uslubiy yondashuvni amalga oshirish mexanizmi har bir tarkibiy element kesimida ko'rib chiqilishi lozim. Mazkur yondashuvning amaliy ahamiyati ayniqsa hozirgi bosqichda, sanoat sektori O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida milliy iqtisodiyotning barqaror va dinamik o'sishini ta'minlashda muhim o'rin tutayotgan sharoitda yanada ortmoqda. Sanoat korxonalarida mavjud resurslarni chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, mahsulot assortimenti va nomenklaturasini kengaytirish orqali diversifikatsiya jarayonlari izchil takomillashib bormoqda. Shu munosabat bilan, resurs tejamkorligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan strategiyani ishlab chiqish sanoat korxonalari faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.


Jahon tajribasi mamlakatlar taraqqiyoti tabiiy resurslar va geografik omillarga bog'liqligini ko'rsatadi, biroq resurslarning cheklanishi yangi iqtisodiy faoliyat turlarini joriy etishni talab etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda to'qimachilik sanoati innovatsion va eksportga yo'naltirilgan tarmoq sifatida shakllanib, ilg'or texnologiyalar va sifat menejmenti orqali rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim

¹⁰ Балашова Р. И. Методологические основы эффективного использования ресурсов предприятий. // Экономические исследования и разработки. – 2016. – № 1. – 19-б.

tajriba yaratmoqda. Shu bois ushbu sohani rivojlangan mamlakatlar misolida o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Xorijiy tajribalar asosida o'tkazilgan SWOT tahlil Farg'ona to'qimachilik sanoatining kuchli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlarini aniqlandi. Soha paxta xomashyosi, malakali ishchi kuchi va klasterlashuv orqali samaradorlikni oshirish salohiyatiga ega. Biroq xomashyoni chuqur qayta ishlash, ESG talablariga moslashuv, brendlash va texnologik modernizatsiyaning sustligi muammo bo'lib qolmoqda. Hududning geostrategik joylashuvi va davlat qo'llab-quvvatlashi eksportni kengaytirsa-da, energiya narxlarining yuqoriligi va xorijiy raqobatchilarning texnologik ustunligi raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Farg'ona viloyati to'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyasi qo'shimcha uch asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi: xomashyo ta'minotini diversifikatsiya qilish orqali paxta, sintetik tolalar, kimyoviy moddalar va qadoqlash materiallarini barqaror manbalar orqali yetkazib berishni ta'minlash, zamonaviy ip yigirish, mato to'qish, bo'yash va avtomatlashtirilgan qadoqlash uskunalari hamda raqamli boshqaruv tizimlari orqali ishlab chiqarish quvvatini oshirish va resurslardan samarali foydalanishni kuchaytirish, shuningdek, Yevropa va MDH bozorlariga chiqish, elektron tijorat va raqamli marketing, global platformalarda faoliyat, brendni mustahkamlash va xalqaro ko'rgazmalardada ishtirok etish orqali eksport hajmi va raqobatbardoshlikni oshirish. Ushbu chora-tadbirlar korxonalar resurslardan samarali foydalanishini kuchaytiradi va bozor ulushini kengaytirishga xizmat qildi (3-rasm).



3-rasm. Farg'ona viloyati to'qimachilik sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlari¹¹

¹¹ Muallif ishlanmasi

Natijada Farg‘ona viloyati ayrim to‘qimachilik sanoati korxonalarida mehnat unumdorlig 3,5 %ga, mahsulotlari tannarxi 2,3 % gacha kamayib, eksport hajmi esa 3,8 % gacha ortgan.

Dissertatsiyaning **“To‘qimachilik sanoatida resurslardan foydalanishning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini baholash”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoati faoliyatini rivojlanishining hozirgi holati va uning o‘zgarish tendensiyalari, sanoat korxonalari o‘rtasidagi kooperatsion jarayonlarni iqtisodiy baholash uslubiyoti, To‘qimachilik sanoati tarmog‘i korxonalarining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash jarayonlari ko‘rsatib o‘tilgan.

1-jadval

O‘zbekiston respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari hajmi ¹²


yillar	Ishlab chiqarish sanoati korxonalari		To‘qimachilik sanoati korxonalari	
	Mahsulot hajmi. mlrd.so‘m	Fizik hajm o‘shish sur‘ati. foizda %	Mahsulot hajmi. mlrd.so‘m	Fizik hajm o‘shish sur‘ati. foizda %
2015	97598,2	105,3	13241,7	110,5
2016	111869,4	105,4	13335,3	109
2017	148816	105,2	16763,3	100,5
2018	235340,7	110,8	24835,2	107,4
2019	322535,8	105	29946,6	105,3
2020	368740,2	100,9	36713,9	117,4
2021	456056,1	108,8	52372,3	119,5
2022	553265	105,3	62850,7	109,9
2023	658991,7	106,3	71509,8	106,4
2024	880198,5	106,5	89489	111,2

Umuman olganda, sanoat va to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishidagi o‘zgarishlar iqtisodiy sharoitlar, tashqi bozordagi talab va global omillar ta’sirida yuzaga kelgan. 2020-yilda pandemiya sababli keskin pasayish kuzatilgan bo‘lsa, 2021-yilda tiklanish boshlandi. 2022-2024-yillarda esa ishlab chiqarish hajmi nisbatan barqaror tus olib, sanoat rivojlanishining uzoq muddatli istiqbollari ijobiy yo‘nalishda shakllanayotganini ko‘rsatmoqda.

2015-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasining umumiy sanoat va to‘qimachilik sur‘atlarini namoyish etdi. Ishlab chiqarish hajmining ortishi, texnologik yangilanishlar, mahsulot diversifikatsiyasi va eksport salohiyati kengaydi. Pandemiya yillarida ham tarmoq o‘shishda davom etib, uning moslashuvchanligini ko‘rsatdi, so‘nggi yillarda esa o‘shish barqarorlashib, infratuzilma va tashkiliy salohiyat shakllandi. Kelgusida xorijiy investitsiyalarni jalb etish, xalqaro standartlarga moslashish, ekologik texnologiyalarni joriy qilish va “Made in Uzbekistan” brendini rivojlantirish jahon bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

¹² O‘zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz ma’lumotlari asosida shakllantirilgan muallif ishlanmasi

O'zbekistonlik olimlarning izlanishlariga asoslanib sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning bir qancha omillar muxim ahamiyatga ega. Bular innovatsion omillar, raqamlashtirish omillari, moddiy resurslarni tejash va inson omillari hisoblanadi (4-rasm).



4-rasm. Sanoat korxonalarining resurslar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar.¹³

So'nggi yillarda innovatsion omillarning sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlik, ayniqsa ma'muriy xarajatlarga ta'siri dolzarb ilmiy mavzulardan biriga aylandi. Tadqiqotlarga ko'ra, "innovatsiyalar boshqaruvni soddalashtirib, takroriy operatsiyalarni avtomatlashtiradi hamda inson resurslaridan foydalanishni optimallashtiradi"¹⁴. Natijada, "ma'muriy xarajatlar kamayadi va ularning ulushi umumiy xarajatlar tarkibida qisqaradi"¹⁵.

Raqamlashtirish omillari esa korxona faoliyatining barcha bo'g'inlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishni talab etadi. "buyumlar interneti, bulutli texnologiyalar, ERP tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi yechimlar real vaqt monitoringi va tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi"¹⁶.

Moddiy resurslardan oqilona foydalanish bugungi kunda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Resurslarni tejash nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki chiqindilarni minimallashtirish va qayta ishlash orqali material qaytimi ko'rsatkichini ham, material sig'imi ko'rsatkichini ham yaxshilaydi.

Omillar tahlili ko'rsatadiki, sanoat korxonalari samaradorligini oshirishda innovatsiyalar, raqamlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va inson kapitali salohiyatini rivojlantirish o'zaro bog'liqdir. Inson kapitali, tashkiliy-iqtisodiy yechimlar hamda ilg'or boshqaruv amaliyotlari jarayonlarning barqarorligini ta'minlab, korxonaning raqobatbardoshligi va innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu asosda iqtisodiy samaradorlik omillari shakllantirilib, ularni ayrim to'qimachilik korxonalarda samaradorligini aniqlash maqsadida ekspert baholash o'tkazildi (2-jadval).

¹³ Alisher o'g'li B. S., Achilovich U. I. Qurilish ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi tahlili. // Uz Conferences. – 2024. – T. 1, № 5. – Dekabr.

¹⁴ Schumpeter, J. A. (1939). Business Cycles: A Theoretical, Historical, and Statistical Analysis of the Capitalist Process. McGraw-Hill.

¹⁵ Фатхутдинов, Р. А. (2013). Инновационный менеджмент. Москва: ИНФРА-М.

¹⁶ Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York: W. W. Norton & Company, 2014. 84-b.

2-jadval

Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash mezonlari¹⁷

Iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichi	Korxonalar		Eng yuqori qiymat
	K ₁	K ₂	5
1			
1. Innovatsion omillar guruhi			
1.1. Ishlab chiqarishga yangi texnologik jarayonlarni tatbiq etish darajasi	4	5	5
1.2. Mahsulot assortimenti va sifatini oshirishga qaratilgan innovatsiyalar ko'lami	4	5	5
1.3. Mahalliy va xorijiy innovatsion tajribalarni korxonaga jalb qilish imkoniyati	4	4	5
1.4. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini kengaytirish.	4	4	5
1.5 Innovatsion mahsulotlar yaratish orqali eksport salohiyatini oshirish.	4	3	5
2. Raqamlashtirish omillar guruhi			
2.1 Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va robotlashtirish.	4	5	5
2.2 Elektron hujjat aylanish va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy qilish.	5	4	5
2.3 Resurslarni boshqarish platformalaridan foydalanish.	5	4	5
2.4 Bulutli texnologiyalardan foydalanish	3	3	5
2.5 Raqamli monitoring va nazorat qilish tizimlarini yo'lga qo'yish.	3	4	5
2.6 IoT texnologiyalaridan foydalanib, ishlab chiqarishni masofadan boshqarishni tashkil etish.	3	4	5
3. Moddiy resurslarni tejash omillari			
3.1 Resurslarni tejaydigan texnologiyalar va jihozlarni qo'llash.	4	4	5
3.2 Ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan xom ashyo va materiallardan foydalanish.	3	4	5
3.3 Energiya tejamkor uskunalar va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish.	4	4	5
3.4 Chiqindisiz va kam chiqindili ishlab chiqarishni tashkil qilish.	3	3	5
3.5 Xom ashyo sarfini kamaytirish maqsadida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish.	3	4	5
4. Inson omillari			
3.1 Xodimlarning bilim va ko'nikmalarini muntazam rivojlantirish, malaka oshirish jarayonlarini tashkil qilish.	3	4	5
3.2 Xodimlarning motivatsiyasini oshirish uchun moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimlarini yo'lga qo'yish.	3	4	5
3.3 Korxonada samarali boshqaruv madaniyatini shakllantirish.	4	5	5
3.4 Innovatsion fikrlash va kreativ yondashuvni rivojlantiruvchi ish muhitini yaratish.	4	4	5
Jami:	3,7	4,1	5


K1 - "Posco International Textile" MChJ

K2 - "Fergana Global Textile" MChJ

Baholash jarayonida obyekt korxonalar ekspertlar guruhi tomonidan chuqur tahlil qilindi. Natijalarni xolis va real holatga yaqin olish uchun ishlab chiqarish jarayonlari, boshqaruv tizimi va texnologik imkoniyatlarini yaxshi biladigan mutaxassislar jalb etildi. So'rovnoma Google Forms platformasida ishlab chiqilib,

¹⁷ Muallif ishlanmasi

bu usul ma'lumotlarni tezkor yig'ish, avtomatik qayd etish va tahlil qilish imkonini berdi.



5-rasm. Samaradorlik darajalari¹⁸

Yuqoridagi mezonlardan foydalangan holda korxonalar to'plagan ko'rsatkichlarga ko'ra ularni guruhlariga ajratishimiz mumkin. Bu baholash orqali korxonalar raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, resurslardan foydalanish va inson omillari bo'yicha to'plagan ballar yuqori, o'rtacha va past samaradorlikka ega guruhlariga tasniflanadi. Guruhlash korxonalarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda ularning rivojlanish strategiyasini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Berilgan ma'lumotlar tahliliga ko'ra, Tahlil natijalariga ko'ra, iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi korxonalar kesimida turlicha shakllangan. "Posco International Textile" MChJ (K1) korxonasida umumiy integral baho 3,7 ballni tashkil etib, innovatsion faoliyat va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha muayyan natijalarga erishilganini ko'rsatadi. Biroq ushbu jarayonlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan bo'lib, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda moddiy va energetik resurslarni tejashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur. Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonlarini chuqur tahlil qilish va optimallashtirish orqali xarajatlarni qisqartirish imkoniyatlari mavjud.

"Fergana Global Textile" MChJ (K2) korxonasida esa iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligining umumiy integral bahosi 4,1 ballni tashkil etib, resurslardan foydalanish darajasi nisbatan yuqori ekanini ifodalaydi. Korxonada innovatsiyalarni keng joriy etish, raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari, shuningdek, resurs tejovchi texnologiyalarni qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshirilgan. Bundan tashqari, boshqaruv tizimining samarali tashkil etilgani va kadrlar salohiyatining yuqoriligi korxonaning raqobatbardoshligini kuchaytirib, uning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

¹⁸ Muallif ishlanmasi

Dissertatsiyaning **“To‘qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘nalishlari, to‘qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish jarayonida ko‘p omilli prognoz parametrlarini baholash bo‘yicha takliflar asoslangan.

Sanoat korxonalarining barqaror va muvaffaqiyatli faoliyati, avvalo, iqtisodiy resurslardan oqilona hamda samarali foydalanishga bevosita bog‘liqdir. Korxona faoliyatini resurslardan foydalanish jarayonlarining tarmog‘i sifatida ko‘rib chiqish muhimdir. Korxonaning haqiqiy maqsadlarini belgilash va ularning amalga oshirilishini baholash resurslar bilan bog‘liq qarorlarning eng yaxshisini tanlash, ushbu qarorlarni amalga oshirish va ularni muntazam nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini ta‘minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va resurslardan maksimal darajada foydalanish korxonalarning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.


Sanoat korxonalarida resurslarni tejash mexanizmi xarajatlarni qisqartirish, energiya va xomashyo sarfini optimallashtirish hamda yo‘qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi. U raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xalqaro standartlarga mos boshqaruvni yo‘lga qo‘yishda muhim omildir. Natijada iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va inson kapitalidan samarali foydalanish ta‘minlanadi.

Iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va barqaror rivojlanishni ta‘minlashga qaratilgan kompleks tizimdir. U tashkiliy va iqtisodiy tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, har biri o‘ziga xos vositalar orqali samaradorlikni oshiradi.

Tashkiliy mexanizm boshqaruv va nazoratni tashkil etish, tashkiliy tuzilmani shakllantirish, innovatsiyalar, raqamlashtirish, monitoring va kadrlar salohiyatini oshirishni qamrab oladi. Iqtisodiy mexanizm esa rejalashtirish, investitsiyalar, narx va rag‘batlantirish siyosati hamda moliyalashtirish orqali xarajatlarni optimallashtirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu mexanizmlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda amal qilib, korxonada iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan yaxlit tizimni shakllantiradi. Jumladan, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha maqsadlar tizimini belgilash, ularga mos vazifalar va ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash, shuningdek, moliyaviy, texnologik, ma‘muriy hamda kadrlar va innovatsiyalar sohasidagi optimal vositalarni tanlash jarayonlari ketma-ket amalga oshiriladi. Shu bilan birga, amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijalari mehnat unumdorligi, raqamlashtirish darajasi, moddiy va innovatsion resurslar samaradorligi ko‘rsatkichlari asosida baholanadi hamda qayta aloqa mexanizmi orqali aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilib, boshqaruv qarorlari doimiy ravishda

takomillashtirib boriladi. Natijada resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish jarayoni bosqichma-bosqich, izchil va barqaror tarzda ta'minlanadi (6-rasm).



6-rasm. Iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bosqichlari¹⁹

